Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 13 oktyabrdagi 226-son qaroriga 2-ilova
Talabalar uchun Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va ularni tayinlash tartibi toʻgʻrisida nizom

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Davlat stipendiyalari tanloviga nomzodlar ko'rsatish bo'yicha Tavsiyalar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari boʻlgan davlat oliy taʼlim muassasalari (bakalavriat va magistratura boʻyicha alohida) talabalariga Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tomonidan oʻtkaziladigan tanlov natijalariga binoan tayinlanadi.

2. Talabalarga tayinlash uchun belgilangan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi kvotasi (oʻn bitta) quyidagi taʼlim yoʻnalishlaridan har biri boʻyicha bittadan stipendiya hisobidan bakalavriat va magistratura uchun alohida-alohida taqsimlanadi:

- qishloq va suv xoʻjaligi;
- texnika va informatika;
- sogʻliqni saqlash va ijtimoiy taʼminot;
- ijtimoiy-gumanitar va ijtimoiy fanlar;
- tabiiy fanlar;
- biznes va boshqaruv;
- pedagogika;
- madaniyat, sanʼat va sport;
- xorijiy tillar;
- huquq va xalqaro munosabatlar;
- jurnalistika.

Ushbu roʻyxatga Vazirlar Mahkamasi tomonidan har oʻquv yili boshida, taʼlim yoʻnalishlaridagi ustuvorliklarni oʻzgartirishning maqsadga muvofiqligidan kelib chiqqan holda, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tavsiyasiga binoan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilishi mumkin.

3. Talabalarga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash uchun quyidagi mezonlarni bajarish belgilanadi:

- umumtaʼlim tayyorgarligini ilmiy-tadqiqot (ijodiy ishlar) ishlari bilan uygʻunlashtirish;
- yoʻnalishlar boʻyicha konferensiya (tanlov)larda qatnashish;
- kamida ikkita eʼlon qilingan ishlar (asarlar)ning mavjudligi;
- tillarni — davlat tilini va bitta xorijiy chet tilni bilish (Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari), bakalavriatdagi taʼlim yoʻnalishi yoki magistraturadagi mutaxassislik xorijiy til boʻlgan taqdirda esa qoʻshimcha ravishda yana bitta xorijiy tilni bilish talab qilinadi;
- Oʻzbekiston tarixini bilish.

Tillarni, axborot texnologiyalarini, Oʻzbekiston tarixini bilish boʻyicha talab darajalarini Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi belgilaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga talabgorlar ushbu fanlar boʻyicha oʻz bilim darajasini aniqlash uchun Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazida (mintaqalar boʻyicha) maxsus test sinovlari topshiradilar. Markaz yakuniy vedomostlarni test sinovlari natijalari bilan birga Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligiga taqdim etadi.

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga nomzodlar koʻrsatish, talabgorlar nomzodlarining oʻqishdagi va ilmiy (ijodiy) faoliyatdagi muvaffaqiyatlari ommaviy ravishda muhokama qilingandan soʻng, davlat oliy taʼlim muassasalarining ilmiy kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

**© Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti - 2021**

**Talabgorlar dastlabki koʻrib chiqish uchun ilmiy kengashga quyidagilarni topshiradilar:**

- sinov daftarchasidan koʻchirma;
- dekanat, kafedra tavsiyanomasi;
- ilmiy (ijodiy) ish annotatsiyasi;
- rahbarning fikr-mulohazalari;
- ilmiy (ijodiy) ishga taqriz;
- ilmiy ishlar roʻyxati va ularning bosma nusxalari.

Barcha hujjatlar ikki nusxada taqdim qilinadi. Hujjatlarning har bir toʻplami jildga joylanadi, har bir jild muqovasida ishni taqdim qilgan muassasaning nomi, talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, ishning nomi koʻrsatiladi.

5. Ilmiy kengashlar yashirin ovoz berish orqali, oddiy koʻpchilik ovoz bilan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyalarini tayinlash uchun stipendiatlar nomzodlarini koʻrsatish toʻgʻrisida qaror qabul qiladilar.

Ilmiy kengashlar qarorlari vazirliklar va muassasalarning Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash haqida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligiga tavsiyanoma yuborishi uchun asos hisoblanadi.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi stipendiyalar tayinlash haqidagi tavsiyanomalarni yiliga bir marta koʻrib chiqadi. Hujjatlarni qabul qilish muddati — **1 - 15 avgust**, koʻrib chiqish muddati — **10 - 25 sentyabr.**

7. Davlat oliy ta’lim muassasalari talabalariga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi hay’ati qarori bilan amalga oshiriladi.

Stipendiyalar tayinlanishidan avval talabgorlarning belgilangan mezonlarga muvofiq bilim va ilmiy (ijodiy) tayyorgarlik darajasi puxta ekspertizadan oʻtkaziladi.

Shu maqsadda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi:

- zimmasiga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalariga talabgorlar orasidan tanlab olish yuklanadigan maxsus tanlov komissiyasi tuzadi;
- talabgorlarning ta’lim va ilmiy (ijodiy) tayyorgarligi darajasini baholash maqsadida ishlarni koʻrib chiqish uchun yoʻnalishlar boʻyicha ekspertlar guruhlari tuzadi;
- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan birgalikda axborot texnologiyalari, Oʻzbekiston tarixi, xorijiy tillar boʻyicha imtihon komissiyalarini tashkil etadi, test topshiriqlarini ishlab chiqadi;
- tanlov komissiyasi va ekspert guruhlarining ish tartibini belgilaydi;
- tanlov komissiyasi majlislarini oʻtkazish muddatlarini belgilaydi.

8. Tanlov komissiyasi talabgorlarning yakuniy tanlovini yashirin ovoz berish yoʻli bilan oʻtkazadi hamda talabgor va uning ishi uchun ovoz berishda ishtirok etgan komissiya a’zolarining kamida uchdan ikki qismi ovoz berganda talabalar nomzodini Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash uchun tavsiya qiladi.

Agar ovoz berishdan soʻng talabgorlar soni belgilangan kvotadan koʻp boʻlsa, ustunlik eng koʻp ovoz olgan talabgorlarga beriladi.

Tanlov komissiyasining qarori Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi hay’ati tasdiqlagandan soʻng kuchga kiradi.

Tanlov komissiyasi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari sohibi boʻlolmagan, lekin

***© Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti - 2021***

eng yaxshi koʻrsatkichlarga ega boʻlgan tanlov qatnashchilarini nomli davlat stipendiyalariga tavsiya qilish huquqiga ega.

9. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi hayʼatining qarori davlat oliy taʼlim muassasalarining talabalarga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash va toʻlash haqida buyruq tayyorlashi uchun asos boʻladi.

10. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari talabalarga har yili, bir oʻquv yili uchun, 1 sentyabrdan boshlab, belgilangan miqdorlarga qatʼiy rioya qilingan holda tayinlanadi.

11. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalariga sazovor boʻlgan talabalarga «Prezident stipendiyasining sohibi» guvohnomasi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi hayʼati majlisida tantanali ravishda topshiriladi.

12. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari sohiblari boʻlgan talabalar davlat oliy taʼlim muassasasini bitirgach, ikki yil davomida grant asosida magistraturaga (bakalavr-stipendiatlar) va aspiranturaga (magistr-stipendiatlar) kirish imtihonlarisiz qabul qilinadi. Agar aspirantura va magistratura mutaxassisligi toʻgʻri kelmasa, u holda kirish imtihonlari faqat aspirantura mutaxassisligi boʻyicha topshiriladi.

13. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari sohibi boʻlgan talabalar oʻqishni bitirgandan soʻng, ikki yil mobaynida magistraturada (bakalavar-stipendiatlar) va aspiranturada (magistr-stipendiatlar) oʻqishni davom ettirish maqsadida xorijga joʻnatilish huquqini saqlab qoladilar.

14. Kundalik darslarni oʻzlashtirmaydigan, oʻquv intizomini va ilmiy odob-axloqni buzgan talabalarni oʻquv yili mobaynida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalaridan mahrum qilish tasarrufida talaba oʻqiyotgan oliy taʼlim muassasalari boʻlgan vazirliklar va idoralarning taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi hayʼati qarori bilan amalga oshirilishi mumkin.

15. Talabalarning Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash boʻyicha ariza va shikoyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda koʻrib chiqiladi.

***© Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti - 2021***